



## TALABALARINING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA MOSLASHUVINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

*Asadova Sobira Davlat qizi*

*Buxoro Davlat Universiteti Talabasi*

*Ismatova Halovat Baxtiyorovna*

*Ilmiy rahbar: Buxoro Davlat Universiteti*

*o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada muallif tomonidan bugungi kundagi talabalarning kelajakdagi ijtimoiy-pedagogik faoliyatga moslashuvini shakllantirish haqidagi fikr va mulohazalari, ijtimoiy-pedagogik faoliyat tushunchasi haqidagi xulosa va tavsiyalar olg'a suriladi.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy pedagog, ijtimoiy-pedagogik faoliyat, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy muhit, ijtimoiy bilim, ijtimoiy kasbiy qadriyat.

**Kirish.** Talaba yoshlarni ijtimoiy-pedagogik faoliyat tushunchasi haqida yetarlicha malumotlar bilan qurollantirish va kelajakdagi o'z kasbiy faoliyat yo'lida qiyinchiliklarga duch kelmasliklari uchun, oliy ta'limda bugungi kundagi berilayotgan bilimlar muhim rol o'ynamoqda.

Talaba yoshlarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash ko'p bosqichli jarayon bo'lib, ularni quyidagicha tavsiflashimiz mumkin:

1. boshlang'ich kasbiy ta'lim;
2. oliy pedagogik ta'lim;
3. Mustaqil-malakaviy ta'lim (mustaqil ta'lim yoki malaka oshirish ta'limi).

Talabalar boshlang'ich ta'lim negizida, Ijtimoiy pedagogika" asoslari asosan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida berilib bunda bo'lajak mutaxassislar ijtimoiy-pedagogik faoliyatning umumiy mazmunini, yo'nalishlari, uning samaradorligiga ta'sir etuvchi pedagogik shart-sharoitlar va psixologik omillar, shakl va metod vositalarni o'rganadilar.

Oliy pedagogik ta'lim negizida esa ijtimoiy-pedagogik faoliyatning tashkil etilish tarixi, ijtimoiy muhitda shaxs rivojlanishining o'ziga xos jihatlari, fanning kategoriyalari, sohada olib kelingan yangiliklar tadqiqotlar haqida o'rganiladi va amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishadi.

Mustaqil-malakaviy ta'lim esa mutaxassisni sohada ro'y berayotgan yangiliklar, ijtimoiy-pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga doir ilg'or texnologiyalar, metodlar VA yondashuvlar bilan doimiy tanishib borishadi.

Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash ikki shaklda:



1) Majburiy pedagogik ta'lim(davlat tomonidan tasdiqlangan DTS,o'quv dasturlari,o'quv rejasiga muvofiq;

2) Mustaqil ta'lim olish (talabalarning o'z ustlarida ijodiy izlanishlari) orqali tayyorlanadi.

Talabalarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatga moslashuvini pedagogik shart –sharoitlarini tahlil qilar ekanmiz, O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish,ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish,o'qituvchi va murabbiylarimizning pedagogik faoliyatlari va ularning obro'si va qadr-qimmatini oshirish mavzusi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 1-fevral kuni 21 moddadan iborat „Pedagogning maqomi tog'risida”gi qonunni imzoladi. Bu qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 1-avgustda qabul qilindi. Senat esa uni 29-sentabrda ma'qullangan. Mazkur qonunning qabul qilinishi pedagogik faoliyatni tashkil etishdagi muammolarni bartaraf etishga ham qaratilgan deyishimiz mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Oliy ta'lim tizimida talaba yoshlarning pedagogik faoliyatga moslashtirish borasidagi muammolar bugungi kunning dolzarb muammosi hisoblanadi.Ijtimoiy-pedagogik faoliyat – bu shaxsning ijtimoiylashuviga,unga ijtimoiy madaniyat tajribalarini singdirishga,jamiyatda o'z-o'zini boshqarishga ,sharoitlar yaratishga qaratilgan kasbiy faoliyatdir. Ilk bor ijtimoiy pedagogika atamasi xx asrda nemis pedagogi Fridrix Disterveg tomonidan fanga kiritilgan.

Xususan, ijtimoiy-pedagogik g'oyalarning rivojlanishiga fransuz faylasufi, yozuvchisi,ma'rifatparvar J.J.Russo (1712-1778y) ulkan hissa qo'shgan. U din va tabiiy rivojlanish asosiga qurilgan tabiatan shakllangan tarbiya g'oyalarini ilgari surgan insondir.

Shvetsariyalik buyuk pedagogik olim I.G.Pestalotssi (1746-1827y) o'z faoliyatida ijtimoiy-pedagogik nazariyani va amaliyotni birlashtirgan va o'z mablag'lari evaziga yetimlar uchun uylar ochgan.

Al-Xorazmiy, Farobiy, Beruniy Ibn Sino, Ulug'bek kabi olimlar o'z ilmiy va pedagogik faoliyatlarida tarbiyalovchi va ta'lim beruvchi ta'sir kuchlarni o'sib kelayotgan avlodga qaratish g'oyasini ilgari surishgan.

Al-Buxoriy hadislarida shunday deyilgan:„Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq odobini ham yaxshilangiz”, „Har bir go'dak islom tabiatida tug'iladi, so'ng ota-onasi uni yo yahudiy qiladi, yo majusiy, yo nasroniy qiladi.”

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur ilmiy maqolada, Talabalarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatga moslashuvini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari o'rganildi. Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida talabalarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatga moslashuvini shakllantirishga oid adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar,pedagog,satsiolog va olimlarning shu mavzuga olib borilgan ishlari o'rganildi va shu fikr-mulohazalarni tahlil qilish jarayonlarini kuzatish ishlari olib borildi.

**Tahlil va natijalar.** „Ijtimoiy pedagogika” va ijtimoiy-pedagogik faoliyat tushunchalarining kirib kelishi nafaqat ta'limda , jamiyatning iqtisodiy,siyosiy ishlarida ham muhim rol o'ynadi.Jamiyat rivojlanib boravergani sayin bu tushuncha ham keng yoritila boshlandi. „Ijtimoiy” tushunchasi (lotincha socialis-umumiy,jamoatchilik)insonlarning birgalikdagi hayoti bilan bog'liq bo'lib,ularning muomala va bir-biriga ta'sirining turli xil shakl va mazmunlarini birlashtiradi.

Ijtimoiy pedagogikada uchta asosiy kategoriya mavjud bo'lib , ularni biz quyidagicha izohlashimiz mumkindir:

1. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat.
2. Ijtimoiy ta'lim
3. Ijtimoiy tarbiya



Bu uch kategoriyalardan biri bo'lgan ijtimoiy-pedagogik faoliyat tushunchasini tahlil qiladigan bo'lsak, asosan uning mazmun markazida bola shaxsi yotadi. Ya'ni uni ijtimoiylashtirish jarayoniga yordam berishga qaratilgan, ijtimoiy madaniy tajribalarini va jamiyatda o'z o'rinini topishni amalga oshiruvchi shart-sharoitlarni yaratish yo'lidir.

Bola shaxsi shaxs sifatida shakllanib borar ekan, uning shaxs sifatida shakllanishida 4 ta ijtimoiy institut muhim rol o'ynaydi. Bular:

- 1) Oila.
- 2) Din.
- 3) ta'lim.
- 4) ma'daniyat

Bulardan uchinchi o'rinda turgan „ta'lim“ga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ta'lim orqali bola bilim oladi va kelajakda ma'lum bir kasb egasi sifatida shakllanadi va jamiyatda o'z o'rnini topishga harakat qiladi. Bunda ijtimoiy pedagog shaxsi muhim rol o'ynaydi va bolaning ijtimoiylashuv jarayonini to'liq shakllantirishga xizmat qiladi.

Har bir ijtimoiy pedagog o'z faoliyatida bolalar axloqiy asosini buzulishiga olib keladigan aniq faktlarni izlashga va ularni bartaraf etishga qaratilgan bo'lishi lozim. Ijtimoiy pedagog har bir kichik muhitda , bola o'z tengqurlari, ota-onalar, o'qituvchilar orasida insonparvarlik etikasiga rioya qilishga intilishiga va ma'naviy dunyosi shakllanishiga yordam berishi kerakdir (1-jadval).

**1-jadval**

<b>Ijtimoiy-pedagogik faoliyat ob'ektlari</b>	<b>Ijtimoiy-pedagogik faoliyat sub'ekti</b>	<b>Ijtimoiy-pedagogik faoliyat tamoyillari</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan bolalar;</li> <li>- ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar qaramog'isiz qolgan bolalar;</li> <li>- jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan nogironlar;</li> <li>- qurolli mojarolar va ofatlar qurbonlari;</li> <li>- qochoqlar va ichki ko'chirilganlar oilalari farzandlari;</li> <li>- zo'ravonlik qurbonlari;</li> <li>- kam ta'minlangan oilalar farzandlari;</li> <li>- xatti-harakatlarning og'ishlari bilan;</li> <li>- ixtisoslashtirilgan muassasalardagi bolalar.</li> </ul>	<p>bu o'z faoliyati yo'naltirilgan shaxsga nisbatan o'qitilgan mutaxassis, ota-ona yoki uchinchi shaxs (guruh). Shaxsning o'zi o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalashda o'ziga nisbatan sub'ekt sifatida harakat qiladi.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- qonuniylik;</li> <li>- ta'lim jarayoni ishtirokchilarining huquqlari, qonuniy manfaatlari va erkinliklarini hurmat qilish va ularga rioya qilish;</li> <li>- ijtimoiy-pedagogik va psixologik yordam olishning ixtiyoriyligi;</li> <li>- ijtimoiy, pedagogik va psixologik yordamning mavjudligi;</li> <li>- maxfiylik;</li> <li>- ilmiy asoslanganligi;</li> <li>- professionallik;</li> <li>- mijozlar muammolarini "bu yerda va hozir" hal qilish</li> </ul>



**Xulosa.** Ushbu maqolani yozishdan ko'zlangan asosiy maqsad- talabalarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatga moslashuvini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ijtimoiy- pedagogik faoliyat tushunchasi, mazmun mohiyati va ta'limdagi shu mavzuda olib borilgan ishlar bilan tanishib chiqishga qaratilgan.

**Vazifalari esa:**

1. Talabalarga zamonaviy ta'lim tizimi, uning ijtimoiy xarakteri xususida tushunchalarga ega bo'lishga yordamlashish;
2. Talabalarni ijtimoiy pedagogning ta'lim tizimida olib boradigan faoliyati xususida malumotlar bilan tanishtirish;
3. Talabalarni ijtimoiy pedagogning ta'lim tizimida tutgan o'rni va roli haqidagi manbalar bilan qurollantirish;
4. Talabalarning ijtimoiy institutlar haqidagi bilimlarini kengaytirish va tizimlashtirish, bola rivojlanishidagi ahamiyatini tushuntirish;
5. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat jarayonida ma'naviyatning roli, ma'naviy dunyo, uning ijtimoiy-pedagogik faoliyatdagi ta'siri mavzusi yuzasidan malumotlar bilan tanishtirishdir.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kundagi talabalarga berilayotgan bilimlarning barchasi ularning kelajagdagi pedagogik faoliyatlariga qaratilgan. Talaba yoshlarni doimiy bandligini taminlash maqsadida qilinadigan ishlar, olib borilayotgan pedagogik izlanishlarning barchasi ularga yo'naltirilgandir va bu bilimlar asosida talaba yoshlar o'z pedagogik faoliyatlarini olib borishlari mumkindir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni- T.:2020-yil. 23-sentabr//O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. Mirziyoyev Sh. „Pedagogning maqomi to'g'risida"gi 2023-yil 1-fevraldagi qonuni;
3. Egamberdiyeva.N „Ijtimoiy pedagogika" darslik .T.2009
4. Xo'jayev. B. Q., Juraev.B. T., „Pedagogik faoliyatga kirish" monografiyasi /B. Q.Xodjayev, B. T. Juraev.- Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2020.- 148b
5. И. Н. БатураТеория и практика социальной педагогики в таблицах и схемах Могилев: МГУ имени А. А. Кулешова, 2019.